



## GRAFIK TASHKILOTCHILAR VA ULARNING AHAMIYATI

Jo'raboyeva Diyora Bahodir qizi

Namangan davlat pedagogika instituti talabasi E-mail:diyorajuraboyeva68@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqola grafik tashkilotchilarning ta'lim jarayonidagi ahamiyatiga bag'ishlangan bo'lib, ularning o'quv ma'lumotlarini tartibga solish, vizual ko'rinishda ifodalash hamda talabalarda analitik fikrlashni rivojlantirishdagi o'rni yoritilgan. Maqolada aqliy xarita, tushuncha xaritasi, Venn diagrammasi va boshqa grafik modellarni o'quv jarayonida qo'llashning didaktik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari grafik tashkilotchilar talabalarning mustaqil fikrlashi, eslab qolish jarayoni va mavzuni chuqur anglashiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** Motivasiya, grafik tashkilotchilar, concept map, Venn diagramma, klaster, flow chart

**Annotation:** This article discusses the significance of graphic organizers in the educational process, emphasizing their role in organizing learning materials, presenting information visually, and enhancing students' analytical thinking skills. The study examines the didactic potential of various types of graphic organizers, such as mind maps, concept maps, Venn diagrams, and flowcharts, in improving comprehension and learning effectiveness. The findings indicate that the use of graphic organizers positively influences students' independent thinking, memory retention, and deeper understanding of academic content.

**Keywords:** Motivation, graphic organizers, concept map, Venn diagram, cluster, flow chart

**Аннотация:** Статья посвящена значению графических организаторов в образовательном процессе. Рассматривается их роль в систематизации учебного материала, визуальном представлении информации и развитии аналитического мышления студентов. В работе анализируются возможности использования таких видов графических организаторов, как интеллект-карта, концептуальная карта, диаграмма Венна и блок-схемы. Результаты исследования показывают, что применение графических организаторов способствует развитию самостоятельного мышления, улучшению запоминания и более глубокому усвоению учебного материала.

**Ключевые слова:** Мотивация, графические организаторы, concept map, диаграмма Венна, кластер, flow chart

Hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda inson kuniga minglab axborotni qabul qiladi va ularni qayta ishlab boshqa shaxsga uzatadi.

Ma'lumotlar oqimining va ularni hajmini yuqori ekani uni tez va samarali tahrirlashni talab qiladi, ayniqsa tez, samarali, aniq ma'lumotni ishlash ta'lim jarayonida ta'lim beruvchi shaxslardan yuqori darajadagi bilim ko'nikma hamda malakani talab etadi.

Turli fan doiralarida turli mavzularda berilgan murakkab mavzularni soddalashtirib tahlil qilishning eng oddiy va qulay usullaridan biri bu grafik tashkilotchilardan foydalanish.



Grafik tashkilotchilardan to'g'ri fodalana olish o'quv materiallari va manbalardagi ma'lumotlarni osonroq ifoda etishga undagi muhim fikr g'oyani ajratib olish ularni visual xolatda o'zlashtirish orqali talabalarda analitik fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi.

Grafik tashkilotchilarga ta'rif turli manbalarda turlicha keladi.

Misol uchun: Dye G. A.ning fikriga ko'ra, —“Grafik tashkilotchilar ma'lumotlarni tartibga soluvchi va berilgan ma'lumotni tushunish qollash uchun kerak bo'lgan tilda taqdim etuvchi vizual modellar<sup>24</sup>,” — deya tariflasa, Culbert.E — “Grafik tashkilotchilar berilgan manbani tushunish, yaratilgan turli xil visual tuzilmani oz ichiga olgan vosita<sup>25</sup>,” — deya izohlaydi.

Chindan ham grafik tashkilotchilar bu berilgan ma'lumotlarni tasniflash, tartibga solish, tahlil qilish hamda taqqoslashga yordam beradigan visual vositalar desak mubolag'a bo'lmaydi.

Ulardan foydalanishning asosiy mohiyati esa berilgan manbadagi asosiy tushunchalarni mantiqiy bog'lanishlarini tez va oson ajratib olish.

Ulardan ta'lim jarayonida foydalanish esa o'quvchi va talabalarda diqqatni muhim ma'lumotlarga tez ajratish, qiyosiy tahlillar qilish hamda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish bilan birga ma'lumotlarni tizimli o'rganishga yordam beradi.

Hozirda grafik tashkilotchilar zamonaviy pedagoglarning beminnat yordamchisiga aylangan va ularning turlari va ulardan foydalanishi bo'yicha ko'plab olimlarning ishlari mavjud.

Misol uchun Ayverdi L., Nakiboğlu C., Aydin S. Ö. Z. ozlarining tabiiy fanlar va texnologiya darslarini grafik tashkilotchilardan foydalanib tashkil etish nomli tadqiqotlarida ularni 12 turga ajratgan<sup>26</sup>. Gallavan N. P., Kottler E ularni 8 turga bo'lib organgan<sup>27</sup>. Men esa ularni ko'p ishlatishiga qarab 7 asosiy turga ajratgan bolardim.

Yani mind maplar, concept map, ven diagrammalari, klasterlar, flow chartlar, sabab oqibatni ko'rsatib beruvchi diagrammalar va turli darajadagi jadval va grafik chizmalar yohud chizmalı jadvali turlarga ajratib o'rganishni tavsiya bergan bo'lardim.

Grafik tashkilotchilardan ta'lim jarayonida foydalanishning ijobiy jihatlari esa visual tasvirning matnga nisbatan tez yodda qolishi va o'rganuvchilarda o'quv jarayonida diqqatini to'plash orqali motivatsiyani oishirishi va ma'lumotlar o'rtasidagi har qanday munosabatlarni aniq ko'ra olish orqali analitik hamda tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytganda grafik tashkilotchilar zamonaviy ta'limda samaradorlikni oshiruvchi eng muhim metodik vositalar bo'lib qolmay mantiqiy xulosa chiqaruvchi, mustaqil ishlash, mustaqil fikrlashni rag'batlantiruvchi visual vositalardir.

<sup>24</sup> Dye G. A. Graphic organizers to the rescue! Helping students link—and remember—information //Teaching exceptional children. – 2000. – T. 32. – №. 3. – C. 72-76.

<sup>25</sup> Culbert E. et al. A Qualitative Investigation of the Use of Graphic Organizers. – 1998.

<sup>26</sup> Ayverdi L., Nakiboğlu C., Aydin S. Ö. Z. Usage of graphic organizers in science and tecnology lessons //Procedia- Social and Behavioral Sciences. – 2014. – T. 116. – C. 4264-4269.

<sup>27</sup>Ellis E., Howard P. Graphic organizers: Power tools for teaching students with learning disabilities //Current Practice Alerts. – 2007. – T. 13. – №. 1. – C. 1-4.

<sup>5</sup>Culbert E. et al. A Qualitative Investigation of the Use of Graphic Organizers. – 1998.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1 Dye G. A. Graphic organizers to the rescue! Helping students link—and remember—information //Teaching exceptional children. – 2000. – T. 32. – №. 3. – C. 72-76.
- 2 Gallavan N. P., Kottler E. Eight types of graphic organizers for empowering social studies students and teachers //The Social Studies. – 2007. – T. 98. – №. 3. – C. 117-128.
- 3 Ayverdi L., Nakiboğlu C., Aydın S. Ö. Z. Usage of graphic organizers in science and technology lessons //Procedia-Social and Behavioral Sciences. – 2014. – T. 116. – C. 4264-4269.
- 4 Ellis E., Howard P. Graphic organizers: Power tools for teaching students with learning disabilities //Current Practice Alerts. – 2007. – T. 13. – №. 1. – C. 1-4.
- 5 Culbert E. et al. A Qualitative Investigation of the Use of Graphic Organizers. – 1998.